

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
FARG'ONA DAVLAT UNIVERSITETI

**FarDU.
ILMIY
XABARLAR**

1995-yildan nashr etiladi
Yilda 6 marta chiqadi

**2024/3--SON
ILOVA TO'PLAM**

**НАУЧНЫЙ
ВЕСТНИК.
ФерГУ**

Издаётся с 1995 года
Выходит 6 раз в год

Sh. T.Axmadjonova	Interpretation of the study of speech styles in uzbek linguistics.....	983
Sh. T.Axmadjonova	A study on the characteristics and types of public speaking in english.....	986
Sh. Sh.Dadabayeva	Expression of comparative relation in language.....	990
N.X.Alieva	Evolution of new phraseological units in the era of digitization.....	997
I.M.Jo'rayev	Jadid adabiyotida oila va jamiyat taqdiri masalasi.....	1001
O.Q.Xasanova	Til o'rganuvchilarning xatolarini to'g'rilashda o'yinlardan foydalanishning didaktik ahamiyati.....	1005
И.Ф.Порубай	Рассмотрение языка сферы автоспорта как профессионального языка.....	1010
D. Sh.Rasulova, N.R.Gafurova	Gender study of forms of references in english languages.....	1019
N.R.Gafurova, O'.I.Xomidova	Linguistic and cultural analysis of lexemes expressing tradition in english and uzbek languages.....	1023
I.M.Qo'chqarov	Methods of teaching english.....	1028
N.Z.Axmadjonov	Nemis tili biznes nutqiy aktida kechirim so'rashning semiotik xususiyatlari (Elektron xatlar misolida).....	1031
Z.M.Xalilova	Tilshunoslikda "Oila/Family" konseptining o'rganilishi.....	1036
G.R.Tashmatova	Роль интеграции предметного содержания и иностранного языка в формировании иноязычной коммуникативной компетенции студентов высших учебных заведений.....	1040
Sh.A.Nuraliyeva	Navoiyshunoslik taraqqiyotida Oybek ijodining o'rmi.....	1044
Z.M.Abdullayev	Antroponimlarning egalik shakllari bilan qo'llanilishining etnolingvistik xususiyatlari (O'zbek va Nemis tillari antroponimlari misolida).....	1047
N.Z.Axmadjonov	Nutq aktlari va ularning klassifikatsiyasi.....	1050
D.X.Madazizova	Badiiy va turistik-reklama diskursida kontaminatsiya imkoniyatlari.....	1055
R.U.Axrorova	«Yosh» tushunchasining lingvistik talqini.....	1059
R.U.Axrorova, L.B.Ikromova	Adabiy asarlarda maqollarning o'rmi.....	1064
A.Mamatova	Nemis tilida frazemalarning turli ma'noda qo'llanilishi.....	1069
A.Mamatova	Nemis tilida frazemalarning milliy-madaniy xususiyatlarining nutqiy tasnifi.....	1074
Sh.O.Abdiloyev	Nemis va tojik tillarida frazeologik birliklarni tasniflash masalasi haqida.....	1078
N.Q.Adamboeva	Xushmuomalalik kategoriyasini aksiolingvistik jihatdan tasniflash nazariyasi.....	1083
T.Z.Mingboyeva	The effects of societal expectations on character development in Jack London's novels.....	1087
D.R.Ubaydullayeva, F.S.Abduvaliyeva	Omma oldida nutq qilishdagi qo'rquv sabablari va yechimlari.....	1091
R.A.Ortiqov	Роль и значение компьютерных игр в образовании.....	1095



UO'K: 821.512.133.091

NAVOIYSHUNOSLIK TARAQQIYOTIDA OYBEK IJODINING O'RNII**РОЛЬ ТВОРЧЕСТВА ОЙБЕКА В РАЗВИТИИ ХУДОЖЕСТВЕННОСТИ
НАВОИ****THE ROLE OF OYBEK'S CREATIVITY IN THE DEVELOPMENT OF
ARTISTICITY OF NAVOI****Nuraliyeva Shoxistaxon Abdusalomovna**

Farg'ona davlat universiteti

Annotatsiya

Maqola Muso Toshmuhammad Oybekning ulug' mutaffakkir Alisher Navoiy hayoti va faoliyati, ijodiga bag'ishlangan ilmiy maqolalari tadqiqiga bag'ishlangan. Oybekning navoiyshunoslik taraqqiyotiga qo'shgan hissasi ko'rsatib berilgan. Ushbu maqolalarning mazmun mohiyati yoritib berilgan. Oybek hayoti va uning ijodini darslarda noan'anaviy o'rganish talabalarning darsga bo'lgan qiziqishlarini orttirib, mavzuni chuqur o'zlashtirishlariga sabab bo'ladi. Ushbu maqolada Oybek hayot va faoliyatini yangi metodlar asosida o'rganish haqida so'z yuritiladi.

Аннотация

Статья посвящена исследованию научных статей Мусы Ташмухаммада Ойбека о жизни и творчестве великого мыслителя Алишера Навои. Показан вклад Ойбека в развитие навоеведения. Разъясняется содержание этих статей. Нестандартное изучение жизни и творчества Ойбека на занятиях повышает интерес учащихся к уроку и способствует углубленному освоению предмета. В данной статье рассказывается об изучении жизни и деятельности Ойбека на основе новых методов.

Abstract

The article is devoted to the study of scientific articles by Musa Tashmuhammad Oybek about the life and work of the great thinker Alisher Navoi. Aibek's contribution to the development of Navoi studies is shown. The contents of these articles are explained. A non-standard study of Oybek's life and work in the classroom increases students' interest in the lesson and contributes to an in-depth mastery of the subject. This article describes the study of Oybek's life and work based on new methods.

Kalit so'zlar: maqola, navoiyshunoslik, taraqqiyot, mazmun-mohiyat, obrazlar tizimi, ilmiy tadqiqot, XIV asr, interfaol usul, o'qitish samaradorligi, texnologik tayyorgarlik, mustaqil fikrlash, didaktik vazifa, maqsadni beqilash.

Ключевые слова: статья, генеалогия, родословная, содержание-суть, система образов, научное исследование, XIV век, интерактивный метод, эффективность обучения, технологическое обучение, самостоятельное мышление, дидактическая задача, целеполагание.

Key words: article, genealogy, genealogy, content-essence, system of images, scientific research, XIV century, interactive method, learning efficiency, technological training, independent thinking, didactic task, goal definition.

KIRISH

Muso Toshmuhammad Oybek navoiyshunoslik taraqqiyotiga ulkan xissa qo'shgan zabardast adabiyotshunos olim edi. U deyarli qirq yil davomida bu sohada muttasil izlanishlar olib borib, qator muvaffaqiyatlarga erishdi. Olimning hayot sahifalariga nazar tashlasak, u Alisher Navoiy ijodini 1928 yildan o'rgana boshlaganini ko'ramiz. Bu buyuk daho haqidagi so'nggi maqolasi 1968-yilda chop etildi. Oybekning ushbu maqolalari birlamchi manbalar asosida yozilganligini, o'z davr uchun yangilik ekanligi, vulgar sotsiologizmi nazariyasi xukmron bo'lgan mumtoz adabiyotimiz namoyandalariga bir yoqlama qarali xukmron bo'lgan davrda xisobga olsak, ular bebaho xazina va ulkan jasoratining hosilasi ekani ayon bo'ladi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR

Oybekning "Navoiy haqida" (1936) maqolasi noma'lum sabablarga ko'ra yuqolgan. 1955 yil 26-mart kuni ushbu maqola Parpi Shamsiyev tomonida Oybekka keltirib berilgan. Maqolada XIII-XIV asrlarda O'tra Osiyodagi ijtimoiy tarixiy sharoit haqida batafsil ma'lumot beriladi. O'rta Osiyoning XIII asrda mo'g'ullar tomonidan istilo qilinishining sabablarini quyidagicha izoxlaydi:

TILSHUNOSLIK

"Mo'g'ullar ko'chmanchi xalq edi. Ko'chmanchilarni O'rta Osiyoga tortgan narsa-o'tloq yerlarni qo'lga kirgizish bulgan. Bundan boshqa ziroat rayonlaridagi o'troq xalqlarni talash, mollarini o'lja qilish va u vaqtlarda O'rta Osiyoning ayrim rayonlaridagi o'troq xalqlarni talash mollarini o'lja qilish va u vaqtlarda O'rta Osiyoni ayrim rayonlarida izchil bo'lgan ichki, tashqi savdo oborotlaridan o'zlariga foyda chiqarib va xokazolar maqsad qilingan edi. [1.8]

NATIJALAR VA MUHOKAMA

XIV asr boshlarida ko'p feodalliklarga ajragan Turkistonda Amir Temur hokimiyat tepasiga keldi va qudratli davlat yuzaga keltirganligini Oybek shunday izohladi: "Temuriylar davrida bu kun muhim tarixiy asarlar yoziladi. Ulug'bek rasadxonasi ham bu davrda Movarounnahrda fikrning darajasini ko'rsatajak bir namuna bo'la oladi. O'rta Osiyo turk-o'zbek adabiy tili o'laroq shakllangan, mukammallashgan bizning klassik poeziyamiizning gullashi ham shu davrga oiddir." [2.14]

Oybek Alisher Navoiyning hayoti va faoliyatiga to'xtalar ekan, bu haqidagi malumotlar, manbalar kamligini eslatib o'tadi. Bu borada o'zining izlanishlari "xomaki ish", "birinchi tajriba" ekanini ta'kidlaydi. Yosh Alisherning bolalik davri ijtimoiy muhit, temuriy shahzodalar o'rtasidagi toj-taxt uchun kurash jarayonlari to'g'risida qimmatli ma'lumotlar keltirdi. Alisher Navoiyning maktabdosh do'sti Sulton Xusaynning toju taxt uchun kurashlari, temuriy shahzoda Muhammad Yodgor ustidan uzil-kesil g'alaba qilishida ulug' shoirning beqiyos o'rni keng yoritiladi. Albatta, uning ushbu xizmatlari e'tiborsiz qoldirilmaydi: "Sulton Husayn Mir Alisherni amir (beklik) mansabiga tayinlamoq istaydi, lekin Mir Alisher bu ishga ko'nmaydi. 1472-yilda rasmiy ravishda bek-amir unvonini oladi. Podshohning farmoniga muvofiq Mir Alisherdan yuqori o'rinni faqat bir bek, ya'ni Muzaffar Barlos bu bek ilgari Sulton Xusaynga katta xizmatlar ko'rsatgan edi. Va shu Muzaffar Barlosdan boshqa hech kim amir Alisherdan yuqori muhr bosa olmasligini hukumdor e'lon qildi.

Bu yerda Navoiyning shaxsiyatini xarakterlovchi bir nuqtani qayd qilib o'tadilar, munajjimlar tayin etgan "yaxshi soat"da shoir muhr bosishi kerak: "Ul janob nafsiy sinuqligidan nihoyati va tavozii uluqligi g'oyatidan andoq yerga muhr bostikim, andin tubanroq hech kimsaga muhr bosqali yer qolmadi." ("Ravzatus-safo") [3.19]

Oybek Alisher Navoiyning o'z davrining eng ma'lumotli kishisi ekani, nafaqat shoir, balki fan va san'atning turli sohalaridan xabardor olim va mutafakkir, hushyor, keng qarashli siyosatchi ham bo'lganligini qator misollar asosida maqolada asoslab bergan. Navoiy idealidagi podshohni Sulton Xusaynda ko'rishni xohlagani, lekin bu orzular oxir-oqibat sarob bo'lib chiqqanligini yozuvchi maqolada qator vaqealar orqali ko'rsatib beradi.

Alisher Navoiy g'azallar, to'rt davrdan iborat 20 ming baytli "Chor devon"ida to'plangani, unda shoirning yoshlikdan boshlab to umrining so'nggi sanalariga qadar yozgan lirik she'rlari jamlanganini ko'rsatib beradi. Bu asarlarning falsafiy, mavzu ko'lami, obrazlar tizimi badiiy ifoda va tasvir vositalari, til jihatlari keng va batafsil yoritib beriladi. "Nima uchun ishq va may motivi Navoiy lirikasining javhari?" deya savol qo'ygan Oybek butun XV asr o'zbek shoirlarida ishq motivi, muhabbat lirikasi ijodining asosini tashkil etishini yozadi: "Navoiy g'azallaridagi ishq va mayni ko'p olimlar ilohiy xarakterda ekanini, shoir Alloh unga erishuvni simbolik obraz bilan yor, jononga bo'lgan ishq shaklida tarannum etilishini so'zlaydilar. Navoiy lirikasidagi muhabbat taronalariga yalpisiga bunday kinoyaviy allegorik ramziy ma'no berishi, menimcha yanglishdir. Shu bilan birga Oybek quydagilarni ham ta'kidlaydi: "Lekin Navoiyning har bir g'azalidagi ishq va mayni haqiqiy ma'nosida anglash ham yangilishdur. Nechun? Chunki, Navoiyda tasavvufning xukumron islom aqidalariga qarshi idealarini tarannum etgan g'azallar uchraganidek, aksar g'azallarda ishq va may, yor, uni sog'inish, maqtash, ayriliq va hokazo kinoyaviy ma'noda bo'lib, insonning ma'naviy kamoloti xaqidagi yuksak orzular fikrlarni ifoda qiladi" [4.48]

Oybek tasavvuf haqida to'xtalar ekan, yozadi: "Tasavvuf ahli-so'fiylar, go'yo xaqiqat qidiradilar. Buyuk, olamshumul haqiqat esa, Allohdir, Allohni tanish, idrok etish kerak. Haqiqatga bosh bilan emas, his-sezgilarning manbai hisoblangan ko'ngil-qalb ila yetishuvni fatvo qiladilar".

Maqolada tasavvuf ta'limotining yuzaga kelishi sabablari, qonun-qoidalar, talablar haqida batafsil ma'lumotlar beriladi. "Xamsa" va uning dostonlari, ushbu an'anada Navoiy ijodining o'rni keng taxlil etiladi. "Xayratul – abror" dostonida "Inson va uning hayoti qanday bo'lishi kerak? U nimalardan saqlanishi kerak? Mana shu savollarga Navoiy chuqur hayot falsafasi va o'zining to'plagan tajribalari, fikrlariga suyanib javob beradi". Oybek "Navoiy" "Farhod va Shirin" dostonini

yo'zishga qarashar ekan, hech kim tomonidan aytilmagan, g'oyaviy mazmuni va san'ati jihatdan tamom yangi va original bir asar yaratishni vazifa qilib qo'ygan. Dostonning muqaddimasida shoir boshqalar yurmagan yo'ldan yurmoqlik kerakligini, boshqa shoirlarning aytganlarini takror qilmaslikni, boshqalar gul tergan chamanga qarab gul qidirishining yaxshi emasligini aytadi" deb yozadi.

Oybek Alisher Navoiyning "Farhod va Shirin" dostonidagi Farhod, Shopur, Mehinbonu, Shirin obrazlarini alohida tahlil etadi. Navoiy mahoratga xos jihatlardan biri to'g'risida to'xtalar ekan yozadi: "Navoiyda fikr mo'l, hayot xaqida ma'lumot mo'l. Shuning uchun kichik bir chizgini qabartira biladi. Munosabatsiz, bog'lanishsiz ko'ringan narsalar, voqealar orasida chuqur ichki robitalar ko'radi. Shuning orqasida shoir kutilmagan, yangi, porloq o'xshatishlar, metaforalar, sifatlashlar va boshqa ifoda vositalarni mo'l-ko'l sochib tashlaydi". [5.95]

Oybek "Layli va Majnun" dostonining yaratilishiga Sharqda mashxur bo'lgan ikki sevgili haqida arab afsonasi asos bo'lganini yozadi. Oybekning "Navoiyning tarjimai holi"(1941), "Xamsa"ning asosiy obrazlari"(1935-36), "Navoiyning dunyoqarashi masalasiga doir" Navoiyning "Majolisun – nafis" asari haqida" (1940), "Navoiyning adabiy merosiga masalasiga doir"(1948), Ulug' shoir va gumanist muallif xaqida", "Alisher Navoiy" (1948)kabi maqolalarida ham buyuk mutaffakkir Alisher Navoiy asarlaridagi obrazlar tizimi, dunyoqarashi, maxorati masalalari taxlil etilgan.

XULOSA

Ushbu maqolalar, albatta, Oybekning kelgusida yaratilajak qator she'riy va nasriy asarlari uchun ham o'ziga xos tayyorgarlik bosqichi vazifasini ham o'tadi. Uning "Navoiy" romanini qanday yozdim" (1959) nomli materiallar yig'dim, ularni taxlil etib, mag'zini chaqish uchun his etishga, o'ylashga boshladim. Bu ishga shu qadar g'arq bo'lgan edimki, romanning ish plani qog'ozda yo'q edi band etgan edi hamisha Navoiyni o'ylar edim". [6.291.]

Oybekning Navoiy haqidagi ilmiy ishlarga tayyorgarlik jarayonlarini kuzatar ekanmiz, "Zafarnoma" (Sharafiddin Yazdiy), "Ibn Batutaning sayohati", "Rashahoti aynul-hayot", "Nuzhatul-kulib (hind bosmasi), "Maqomoti Mavlaviy Jomiy", "Matlabil tolibin " kabi ko'plab tarixiy asarlar bilan tanishib chikkanligini ko'ramiz.

Xullas Oybekning Navoiy xaqidagi, uning ijodiga bag'ishlangan maqolalari navoiyshunoslik taraqqiyotida muhim o'rin tutadi. U keyingi Alisher Navoiyga bag'ishlangan ilmiy tadqiqotlar uchun muhim manba bo'lib xizmat qiladi.

ADABIYOTLAR RO'YXATI

- 1.Ойбек. Мукаммал асарлар тўплами. Ўн тўққиз томли. Ўн учинчи том.Т.:Фан,1979.- Б.8.
2. Сабридиннов А."Маънавият ва маърифат чашмалари".Т.:Академнашр, 2017.- Б.45.
- 3.Жабборов Н. "Маоний аҳлининг Соҳибқирони".Т.:Адабиёт,2021.-Б.105.
4. Ойбек. Мукаммал асарлар тўплами. . Ўн учинчи том- Т.:Фан,1979.-Б.291
5. Хондамир. Макорим ул-ахлоқ.Т.:Адабиёт ва санъат, 1963.-Б.185.
6. Ойбек. Мукаммал асарлар тўплами, . Ўн учинчи том. Т.:Фан,1979.-Б.95